

“TASDIQLANGAN”
“KAFIL SUG'URTA” AJ
Boshqaruv raisi F.A.Artikov
2024- yil 5- yanvar

**AHOLI XONADONIDA SUYULTIRILGAN GAZ BALLONIDAN FOYDALANISH
OQIBATIDA YUZ BERISHI MUMKIN BO'LGAN QALTISLIKLARDAN SUG'URTA QILISH
BO'YICHA OMMAVIY OFERTA**

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) **“KAFIL-SUG'URTA” AJ** ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi jismoniy shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yullangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bulib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Ofepta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

- mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;
- arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili(agar bor bo'lsa) va mobil telefon raqami mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritish Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 933-moddasiga muvofiq sug'urta siri saqlashga javobgar bo'ladi. «Oferta», «Sug'urta shartnomasi» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “Aholi xonadonida suyultirilgan gaz ballonidan foydalanish oqibatida yuz berishi mumkin bo'lgan qaltisliklardan sug'urtalash qoidasi” (bundan keyin matn bo'yicha - “Qoida” deb yuritiladi) sug'urta sohasini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq hamda «KAFIL-SUG'URTA» AJ sug'urta kompaniyasi bundan keyingi matn bo'yicha – “Sug'urtalovchi” deb yuritiladi)ning Ustaviga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, jismoniy shaxslar (bundan keyingi matn

bo'yicha - "Sug'urta qildiruvchi" deb yuritiladi)ning xonadonlaridagi suyultirilgan gaz ballonini yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplanishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan Litsenziyaga muvofiq 8, 13 - klasslarga oid sug'urta turi hisoblanadi.

1.2. Sug'urtalovchi ushbu qoida asosida Sug'urta qildiruvchiga beriladigan Sug'urta polisiga asosan unda nazarda tutilgan voqea (Sug'urta hodisasi), ya'ni Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz balloni yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni Sug'urta polisida kelishilgan summa (Sug'urta summasi) doirasida to'lash (Sug'urta tovonini to'lash) majburiyatini oladi.

II. QOIDADA ISHLATILADIGAN ASOSIY ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFI

Atamalar	Ta'rif
Sug'urta polisi	Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan real vaqt rejimida shakllantirilgan seriya, raqamiga ega bo'lgan sug'urta qilish amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat;
Sug'urta muddati	Sug'urta polisining amal qilish muddati;
Sug'urta qiymati	Aholi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining sotuvdagi yoki baholovchi ekspert tomonidan baholangan haqiqiy bozor narxi;
Sug'urta puli	Sug'urtalovchining eng yuqori javobgarligi miqdorini belgilovchi va Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lmagan summa;
Sug'urta mukofoti	Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan sug'urtalash uchun Sug'urta polisiga asosan Sug'urtalovchiga to'laydigan pul mablag'i;
Sug'urta hodisasi	Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz balloni yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi;
Franshiza (shartsiz)	Sug'urta qildiruvchi ko'rgan zararining Sug'urtalovchi tomonidan har bir sug'urta hodisasi bo'yicha qoplanmaydigan qismi;
Sug'urta tovon	Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta puli doirasida Sug'urta qildiruvchiga, uchinchi shaxsga yoki ularning qonuniy merosxo'rlariga to'lanadigan pul mablag'i;
Fors-major	Sug'urta polisi va mazkur qoida shartlari to'liq yoki qisman bajarilmay qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan favqulotda, aqliy tadbirlar bilan oldini olib bo'lmaydigan, Sug'urta polisi tomonlarining xohish irodasiga bog'liq bo'lmagan holat.

III. SUG'URTA SUBYEKTLARI

3.1. Sug'urtalovchi-"KAFIL-SUG'URTA" AJ va uning hududiy bo'linmalari, Cug'urta qildiruvchi va uchinchi shaxslar sug'urta subyektlari hisoblanadilar.

IV. SUG'URTA OBYEKTALARI

4.1. Sug'urta obyekti bo'lib Sug'urta qildiruvchining xonadonidagi suyultirilgan gaz balloni yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplanishi bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga zid bo'lmagan mulkiy manfaatlarini hisoblanadi.

V. SUG'URTA SHARTNOMASINI TUZISH TARTIBI VA MUDDATI

5.1.1. Mazkur sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta xizmatlarini sotish va ko'rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat bo'lib hisoblanadi;

5.1.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda takdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi;

5.1.3. Sug'urta qildiruvchi elektron arizaning to'ldirilishi shart bo'lgan kataklarini mustaqil va arizada ko'rsatilgan hujjatlarning aslidagi ma'lumotlarga qat'iy muvofiq holda to'ldiriladi;

5.1.4. Sug'urta qildiruvchi arizada ko'rsatilgan hujjatlarning ishonchliligi va asliga to'g'ri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada ko'rsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq bo'lmaganida sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta to'lashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi;

5.1.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma'lumotlari avtomatik ravishda Sug'urta shartnomasiga (Sug'urta polisiga) kiritiladi.

5.1.6. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi hamda Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotining shakllantirilgan summasiga rozi bo'lgan taqdirda, uni to'lashga qadar Sug'urta qildiruvchi mazkur Qoida matni bilan tanishish majburiyatini oladi.

5.1.7. Qoidada taklif qilinadigan sug'urta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligini tasdiqlaydi va Sug'urta shartnomasini tuzish uchun arizani (bundan buyon matnda Ariza deb yuritiladi) Sug'urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to'ldirishga kirishadi.

5.1.8. Arizani to'ldirishda Sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni va sug'urta hodisasi yuz berishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini (sug'urta tavakkalchiligini) ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asliga qat'iy muvofiqlikda ko'rsatilishi kerak.

5.1.9. Ariza to'ldirilganidan keyin, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasidan foydalanishga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

5.1.10. Sug'urta shartnomasi taraflari Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta polisining olinishi Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

5.1.11. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

5.2. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha to'lovni amalga oshirish tartibi:

5.2.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

5.2.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

5.2.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi elektron to'lov tizimini tanlashi zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish uchun tanlangan to'lov tizimining saytiga avtomatik tarzda qayta yo'llanadi;

5.2.4. Sug'urta polisi uchun sug'urta mukofoti to'langanligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, Sug'urta qildiruvchining kiritgan telefon raqamiga Sug'urta polisining seriyasi, raqami va Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchini xabardor qiladi. SMS xabarda sug'urta polisini yuklab olish imkonini beruvchi havola mavjud bo'ladi.

5.2.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

5.2.6. Sug'urta mukofotini bank kartasi bilan to'lash bevosita Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) - karta egasi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash

uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi.

5.2.7. Sug'urtalovchining axborot tizimida «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Qoida shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

VI. SUG'URTA SUMMASI, SUG'URTA MUKOFOTINI TO'LASH TARTIBI

6.1. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi:

6.1.1. Sug'urta qildiruvchining xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi bo'yicha Sug'urta summasi 5 000 000,00 (besh million) so'mdan 10 000 000,00 (o'n million) so'mgacha miqdorda bo'ladi. Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi.

6.1.2. Sug'urta qildiruvchining xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha Sug'urta summasi 5 000 000,00 (besh million) so'mdan 10 000 000,00 (o'n million) so'mgacha miqdorda bo'ladi. Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi.

6.3. Sug'urta mukofoti hisoblash uchun 6.1.1. va 6.1.2- bandlardagi tavakkalchiliklar uchun Sug'urta tarifi yillik 1,0 foiz miqdorida belgilanadi.

6.4. Hisoblangan jami sug'urta mukofoti to'lovi Sug'urta qildiruvchi bank kartasi bilan bevosita karta egasi tomonidan amalga oshiriladi. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi. Sug'urta mukofoti qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi.

VII. SUG'URTA HODISASI

7.1. Mazkur qoidaga muvofiq:

- Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda,

- Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi Sug'urta hodisasi hisoblanadi.

7.2. Quyidagi holatlarda Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi hamda gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi sug'urta hodisasi deb tan olinmaydi va sug'urta to'voni to'lanmaydi:

a) Sug'urta qildiruvchi yoki oila a'zolari o'zining yoki uchinchi shaxslarning or-nomusi, hayoti va salomatligini saqlash, o'z fuqarolik burchini bajarishga aloqador harakatlardan tashqari sug'urta hodisasini keltirib chiqarish maqsadida qasddan qilgan harakatlari oqibatida zararlanishi;

b) sug'urtalangan gaz ballonidan foydalanishda uni ekspluatatsiya qilish, yong'in xavfsizligi, yonuvchi va portlovchi modda hamda predmetlarni saqlash qoidalarini buzilishi;

v) sug'urtalangan gaz ballonidan sinov yoki boshqa maqsadlarda foydalanish;

g) sug'urtalangan gaz ballonining alohida ehtiyot qismlarining doimiy ta'sir qiluvchi ekspluatatsiya omillari (tabiiy eskirish, chirish, sirtining buzilishi, yorilish, zanglash va hakazolar) natijasida zararlanishi, shuningdek, sug'urta hodisasi yoki ob-havo ta'siri natijasida tashqi ko'rinishining eskirishi va sifatining buzilishi;

d) sodir bo'lgan hodisa vakolatli tashkilotlar (IIB, YHXB, YoXNB) da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa;

- e) sug'urta hodisasi sodir bo'lishining aniq sabablari aniqlanmagan bo'lsa;
- j) Sug'urta qildiruvchi yoki uning ishonchli vakili tomonidan sug'urta tovonini olish maqsadida berilgan ma'lumotlar yolg'onligi aniqlanishi;
- z) sug'urtalangan gaz balloni tegishli (tuman/shahar) gaz idorasida ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa;
- i) Sug'urta hodisasi Sug'urta qildiruvchi xonadoni hududidan tashqarida ro'y bergan bo'lsa;
- y) yetkazilgan zarar aybdor shaxs tomonidan qoplangan bo'lsa.

VIII. DA'VOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

8.1. Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi, yoxud uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar holatida Sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga uning yozma ravishdagi arizasi va mazkur qoidaning 8.2-bandida ko'rsatilgan hujjatlar hamda Sug'urtalovchi tomonidan tuzilgan sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi.

8.2. Sug'urta qildiruvchi o'z arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

8.2.1. Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz balloni yong'in va portlash oqibatida qisman zararlanganda:

- a) sug'urta polisi;
- b) tegishli litsenziyaga ega baholash tashkilotining gaz balloniga yetkazilgan haqiqiy zarar, ehtiyot qismlari va materiallari ro'yxati hamda eskirish qiymati ko'rsatilgan kalkulyatsiyasi.

8.2.2. Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi holatida Sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi va uchinchi shaxslarning yozma ravishdagi arizasi va mazkur qoidaning 8.3.-bandida ko'rsatilgan hujjatlar hamda Sug'urtalovchi tomonidan tuzilgan sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi.

Uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar yetkazilganda Sug'urta tovonini Sug'urta pulining 35 foizi, hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda Sug'urta tovonini miqdori Sug'urta pulining 65 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

8.3. Sug'urta qildiruvchi o'z arizasiga quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- a) sug'urta polisi;
- b) IIB YoXB ma'lumotnomasi, xulosasi (zarur holatlarda sudning qarori);
- v) tegishli litsenziyaga ega baholash tashkilotining uchinchi shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan haqiqiy zarar, ehtiyot qismlari va materiallari ro'yxati hamda eskirish qiymati ko'rsatilgan kalkulyatsiyasi;
- g) uchinchi shaxslarning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar mavjudligini va miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar (tibbiyot muassasasidan ma'lumotnoma yoki hayot va sog'liqqa yetkazilgan zararni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, dalolatnoma yoki o'lim to'g'risidagi guvohnoma).

8.4. Uchinchi shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda sug'urta tovonini miqdori hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar Sug'urtalovchining «Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisasi oqibatida tan jarohati olishi bo'yicha sug'urta tovonini miqdorini aniqlash jadvali» (quyida «Sug'urta to'lovlari jadvali» deb ataladi) ga muvofiq sug'urta puliga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Bir baxtsiz hodisa oqibatida turli tashxislar bilan ta'riflanuvchi bir nechta tan jarohati olinganda, sug'urta to'lovining miqdori hamma tan jarohatlar bo'yicha to'lovlarning yig'indisini tashkil qilib, belgilangan sug'urta pulidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

8.5. «Sug'urta to'lovlari jadvali» ga kiritilmagan tashxis qo'yilgan tana jarohati olinganda, to'lov Sug'urtalovchining ishonchli shifokor-mutaxassisining xulosasiga asosan «Sug'urta to'lovlari jadvali» ning tan jarohatiga to'g'ri keladigan, tegishli bo'limida ko'rsatilgan maksimal to'lov miqdori chegarasida amalga oshiriladi.

8.6. Bir nechta shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganda xar bir jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga) tegadigan sug'urta tovonini miqdori har bir jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining darajasiga mutanosib ravishda aniqlanadi.

8.7. Hayotga, sog'liqqa va (yoki) mol-mulkka zarar yetkazilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'yicha shubha paydo bo'lganda sug'urtalovchi hujjatda ko'rsatilgan axborotning tasdig'ini olish uchun ushbu hujjatni bergan muassasaga murojaat qilish xuquqiga ega.

8.8. Yuqoridagi hujjatlar taqdim etilgach, sodir bo'lgan sug'urta hodisasi xususiyatidan kelib chiqib, Sug'urtalovchi vakolatli tashkilotlardan hodisani to'liq tafsilotlari va ishtirokchilari to'g'risida, ushbu hodisani vakolatli tashkilotda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotnoma, zarur bo'lganda, hodisa ishtirokchilari sud-tibbiyot ekspertizasi xulosasi, sud qarori va boshqa hujjatlar so'rovini amalga oshiradi.

Shu bilan birga, Sug'urtalovchi Sug'urta hodisasi yuz berishi sabablari va holatlarini mustaqil o'rganishga, Sug'urta qildiruvchidan qo'shimcha hujjatlar (gaz ballon texnik pasporti, zararlangan gaz ballonining fotosuratlarini va boshqalar)ni so'rashga haqli.

8.9. Sug'urta hodisasi bo'yicha taqdim qilingan barcha zarur hujjatlar Cug'urtalovchi Sug'urta to'lovlari bo'yicha komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilib, sug'urta hodisasi tan olinganligi yoki tan olinmaganligi to'g'risida komissiya qarori qabul qilinadi. Qabul qilingan qarorga asosan aniqlangan sug'urta tovonini to'lash uchun tomonlar, ya'ni Cug'urtalovchi va Cug'urta qildiruvchi o'rtasida dalolatnoma tuziladi. Sug'urta hodisasi tan olinmagan taqdirda Sug'urtalovchi 5 (besh) kun muddat ichida Cug'urta qildiruvchiga yozma ravishda xabar beradi.

8.10. Sug'urtalovchining Sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi qarori sodir bo'lgan Sug'urta hodisasi yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi va boshlab yuborilgan sud jarayonlari tugatilgunigacha yohud Cug'urta qildiruvchining aybdorsizligi tan olingunigacha bo'lgan davrga kechiktirilishi mumkin.

IX. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA UNI TO'LASH TARTIBI

9.1. Sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxslar Sug'urta hodisasi haqida Sug'urtalovchiga 3 (uch) kun ichida yozma ravishda xabarnoma beradi.

9.2. Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining yong'in va portlash natijasida yo'qotilishi yoki zararlanishi, hamda gaz ballonining portlashi yoki yong'in chiqishi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishi bo'yicha Sug'urta tovonini to'lash tartibi:

9.2.1. Gaz balloni to'liq yo'qotilganda (nobud bo'lganda) Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta tovonini gaz ballonining sug'urtalangan Sug'urta puli doirasida to'laydi.

9.2.2. Uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar yetkazilganda Sug'urta tovonini Sug'urta pulining 35 foizidan, hayoti yoki sog'ligiga zarar yetkazilganda Sug'urta tovonini miqdori Sug'urta pulining 65 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

9.2.3. Sug'urta hodisasi, shuningdek, keltirilgan zararni isbotlash Sug'urta qildiruvchi zimmasiga yuklanadi.

9.2.4. Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining takomil-lashtirilishi yoki o'zgartirilishi, yangilanishi bilan bog'liq xarajatlar, Cug'urta qildiruvchi tomonidan zararni baholatish ishlari uchun qilingan xarajatlar Cug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

Sug'urta qildiruvchi xonadonidagi suyultirilgan gaz ballonining eskirish qiymati tovar ko'rinishi va Sug'urta polisida kelishilgan franshiza miqdori har bir to'lanayotgan sug'urta tovonini miqdoridan chegirib qolinadi.

9.2.5. Sug'urta tovonini sug'urta qildiruvchi tomonidan tijorat bankida ochilgan hisob raqamiga pul mablag'ini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.3. Sug'urta hodisasi oqibatida gaz balloniga yetkazilgan zararining yoki portlashi oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar)ga zarar yetkazilishida Sug'urta tovonining ma'lum qismi aybdor yoki boshqa shaxslar tomonidan qoplangan bo'lsa, Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta tovonini zararining qoplangan qismi miqdorida kamaytiriladi.

X. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

10.1. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- a) Sug'urta qildiruvchini sug'urta shartlari bilan tanishtirish;
- b) Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti to'langandan so'ng sug'urta polisini berish;

v) Sug'urta hodisasi ro'y bergach, mazkur qoidalarda o'rnatilgan tartib va muddatlarda da'voni o'rganib chiqish hamda Sug'urta tovonini to'lashni amalga oshirish;

g) Sug'urta tovonini to'lash rad qilingan taqdirda, Sug'urta qildiruvchini barcha zarur bo'lgan hujjatlar taqdim qilingan kundan boshlab 15 kun muddat ichida rad qilish asoslarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabardor qilish;

d) Sug'urta qildiruvchi/uchinchi shaxslar tomonidan barcha zarur hujjatlar taqdim qilingandan hamda Sug'urta tovonlarini to'lash Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi bilan Sug'urta hodisasi tan olinganligi to'g'risidagi dalolatnomani imzolangandan so'ng 5 bank kuni muddatida to'lash;

e) o'zining sohadagi faoliyati natijasida olingan Sug'urta qildiruvchi va uning mulkiy hamda moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatmaslik.

10.2. Sug'urtalovchining huquqlari:

a) Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxslar Sug'urta tovoniga da'vo qilganda Sug'urta qildiruvchidan sug'urta polisida va mazkur qoidalarda ko'rsatilgan majburiyatlarining bajarilishini talab qilish. Sug'urta qildiruvchi tomonidan majburiyatlarining o'z vaqtida yoki umuman bajarilmasligi oqibatida yuzaga keladigan xavflar Sug'urta qildiruvchi zimmasiga yuklatiladi.

b) Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi (polisi) tuzilishidan avval Cug'urtalovchiga yolg'on ma'lumotlar berganligi aniqlansa, sug'urta shartnomasining haqiqiy emas deb tan olinishini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida nazarda tutilgan oqibatlar qo'llanishini talab qilish;

v) quyidagi holatlarda Sug'urta tovonini to'lashni rad etish:

-agar Cug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida Sug'urtalovchini o'z vaqtida sababsiz xabardor qilmasa;

-Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sababi va xususiyatlarini aniqlash uchun zarur ma'lumot va hujjatlarni taqdim qilmaganda;

-Sug'urta polisidan naf olish maqsadida yolg'on vosita va usullarni ishga solganda;

-Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa, shuningdek, Sug'urtalovchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha xujjatlar va dalillarni Sug'urtalovchiga va barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishdan bosh tortganda.

g) sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilinganda Sug'urta polisi shartlarini o'zgartirishni yoki qo'shimcha Sug'urta mukofotini to'lashni talab qilish;

d) zarur hollarda gaz balloniga yetkazilgan zararni ekspertiza tashkilotlarida qayta baholash va sug'urta tovonini ular tomonidan berilgan hujjatlar (kalkulyatsiya, mutaxassis fikri, dalolatnoma va boshqalar) asosida to'lash;

e) gaz ballonining sug'urta hodisalari oqibatida zararlangan va baholash tashkilotlarining kalkulyatsiyalariga ko'ra yaroqsiz deb topilgan ehtiyot qismlarini talab qilib olish.

10.3. Sug'urta qildiruvchining/uchinchi shaxslarning majburiyatlari:

a) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi o'ziga ma'lum bo'lgandan so'ng 72 soatdan kechikmay Sug'urtalovchi uning vakilini bu haqda yozma ravishda xabardor qilish;

b) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini ko'rib chiqish uchun mazkur qoidaning 8-bo'limida ko'rsatilgan barcha hujjatlarni taqdim qilish;

v) Sug'urta polisi tuzilayotganda o'ziga ma'lum bo'lgan va Sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini hamda uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlarni Sug'urtalovchiga xabar qilish;

g) Sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash;

d) Sug'urta polisining amal qilish davrida Sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilish;

e) Sug'urtalovchining roziligisiz gaz balloni ehtiyot qismlarini bir-biridan ajratish va hech qanday ta'mirlash ishlarini boshlab yubormaslik. Xavfsizlikni ta'minlash yoki vakolatli tashkilotlar buyruq va farmoyishlarini bajarish uchun zaruriyat tug'ilgan holatlar bundan mustasno;

j) Sug'urtalovchining yozma roziligisiz to'lov kafolatlari yoki majburiyatlarini o'z zimmasiga olmaslik;

z) vafot etgan shaxsning vorisi Qonunchilikda belgilangan muddatda aniqlangandan so'ng Sug'urtalovchiga yozma ravishda xabarnoma berish;

i) gaz ballonini yaroqli holatda saqlash bo'yicha doimo oldini olish choralarini o'tkazish.

10.4. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

a) Sug'urtalovchidan Sug'urta polisining to'liq amal qilish davrida sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olish;

b) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda ushbu sug'urta bo'yicha Sug'urtalovchidan qabul qilgan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilish;

v) mazkur sug'urta doirasidagi kelishmovchiliklarni muvofiqlashtirish uchun mustaqil ekspertni jalb qilish.

XI. NIZOLARNI KO'RISH TARTIBI

11.1. Mazkur Qoidalaridan kelib chiqadigan barcha bahs va munozaralar tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan hal qilinadi. Kelishish imkoni bo'lmagan holda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligi asosida hakamlik yoki iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun beriladi.

XII. SUBROGASIYA

12.1. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida Sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga o'tadi.

12.2. Sug'urta qildiruvchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

12.3. Sug'urta qildiruvchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Sug'urta qildiruvchining (uchinchi shaxslarning) aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

XIII. OFERTANING AMAL QILISH TARTIBI

13.1. Mazkur Oferta "KAFIL-SUG'URTA" AJ Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

13.2. Mazkur Ofertaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish "KAFIL-SUG'URTA" AJ Boshqaruv raisi buyrug'i bilan amalga oshiriladi.